

TURKIY TILLARDA NISBAT KATEGORIYASI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

Karimova Xonzoda

Eshpo'latova Munavvar

Raxmanova Durdona

TerDU o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari

Annotasiya: Ushbu maqolada turkiy tillarda nisbat kategoriyasining o'rni va rivojlanish tarixi tahlil qilinadi. Nisbat kategoriyasi ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi muhim grammatik element sifatida qadimgi turkiy tillardan zamonaviy tillargacha o'zgarib kelgan. Maqolada, avvalambor, turkiy tillarning tarixiy rivojlanishi va uning natijasida nisbatlar kategoriyasining qanday shakllanganligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Nisbat, kategoriya, turkiy tillar, majhul nisbat, o'zlik nisbat, birgalik nisbati, orttirma nisbat, qo'shimchalar.

Nisbat kategoriyasi turkiy tillarda muhim grammatik tushuncha bo'lib, bu biror ob'ekt yoki shaxsning boshqa ob'ekt yoki shaxs bilan bog'lanishini ifodalaydi. Nisbat kategoriyasi — bu ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni, taqqoslashlarni va bog'liqliklarni o'rganadigan konseptual to'plamdir. Uning rivojlanish tarixi ko'plab ilmiy va falsafiy yondashuvlar bilan bog'liq. 1. Rivojlanish tarixi: Nisbatlar haqidagi ilk tushunchalar qadimgi yunon mutafakkirlarida, masalan, Pifagor va Platon asarlarida uchraydi. Ular matematik nisbatlar va go'zallikni ifodalovchi proporsiyalarni o'rganishgan. 2. O'rta asrlar: Bu davrda arifmetika va geometriya asosida nisbatlar yanada rivojlanadi. Al-Xorazmiy va boshqa olimlar matematik hisob-kitoblar orqali nisbatlarni tadqiq qildilar. 3. Renessans: Matematikalar va ilm-fan sohalaridagi yangiliklar bilan birga, nisbatlar san'at va arxitekturada muhim ahamiyat kasb etdi. Ko'plab san'atkorlar go'zallik va harmoniyani nisbatlar orqali ifodalashdi. 4. XIX asr: Ijtimoiy fanlar rivojlanishi bilan birga nisbatlar yangi kontsepsiyalar, masalan, statistik nisbatlar va iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida qo'llanila boshlandi. 5. XX asr: Analitik usullar va statistik metodologiyalar orqali nisbat

kategoriyalari yanada kengaydi. Turli sohalarda, masalan, iqtisodiyot, psixologiya va sotsiologiyada qo'llanila boshlandi. Hozirgi zamon: Bugungi kunda nisbat kategoriyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tizimlarni tushunishda muhim vosita sifatida qo'llaniladi. Matematik model va statistik tahlillar orqali nisbatlar o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va tavsiflashda qo'llaniladi. Nisbatlar, shuningdek, raqamli iqtisodiyot va big data davrida yangi imkoniyatlar ochadi, bu esa ularni yanada muhimroq qiladi. Hozirda uning turlari va qanday o'zgarishini kuzatamiz.

1. Majhul nisbat Ushbu nisbat hozirgi barcha turkiy tillarda uchraydi. Uning eng xarakterli ko'rsatkichi -l, -il// -il affiksi hisoblanadi. Faqat chuvash tilida majhul nisbat boshqacha hosil qilinadi. Mazkur nisbat qadimgi turkiy tillarning turli yozma yodgorliklarida mavjud edi. Fe'l negizining oxirgi undoshi [-l] affiksi bilan tugagan bo'lsa, majhul nisbat vazifasini -n, -in, -un qo'shimchalari bajaradi. Yoqut tilida esa, negizi cho'ziq unli, diftonglar bilan tugagan fe'l negizlari ham qo'shiladi. Ba'zan esa -l, -il, -ul undoshi bilan tugagan fe'l negizlariga ham qo'shilishi mumkin. Majhul nisbatning turkiy tillarda keng tarqalganligi uning turkiy bobotilda ham mavjud bo'lganligini anglatadi. Shuning bilan birga, ayrim dalillarning guvohlik berishiga qaraganda, turkiy bobotilning dastlabki etapida majhul nisbat bo'lmagan. Hozirgi turkiy tillarda qadimgi sifatdoshning har xil qoldiqlari juda nafaol ma'noga ega bo'lgan, ammo ular tarkibida majhul nisbat affiksi uchramaydi: ozarb. *burma* (burilgan), tur. *yarma* (yorilgan), tuv. *uzuk* (uzilgan), tat. *j̄mirik* (buzilgan), tur. *kirḡin* (sindirilgan) va hokazo. Ayrim turkologlar fikricha, majhul nisbat ko'rsatkichi sanalgan affiks, dastlab, so'z yasovchilik xususiyatiga ega bo'lgan. Haqiqatan ham, turkiy tillarda hozirda ham, oz miqdorda bo'lsa-da, so'z yasovchi -l affiksi takroriy harakatni ifodalashga xizmat qiladi: o'zb. *quvla* < *quv*, *bukla* < *buk*, *savala* < *sava*, *qaytala* < *qayt*, tat. *сьypala* < *сьypa* (*siypa*), *sibl* < *sib* (*quymoq*) kabi.

2. O'ZLIK NISBATI . O'zlik nisbati barcha turkiy tillarda mavjud. Uning ko'rsatkichi sifatida -n, -in// -in affiksi xizmat qiladi. Tuva tilida -tin, -tun// -din, -dun qo'shimchalari qo'shish orqali hosil qilinadi. Ba'zan fe'l negizi n undoshi bilan tugagan so'zlarda, -il qo'shilishi holati ham bo'lgan. Shuningdek, u qadimgi yozma yodgorliklarda qayd qilingan, hozirda yo'qolib ketgan turkiy tillarda ham mavjud

bo'lgan. Bu ushbu nisbatning turkiy bobotilda ma'nosini qayta anglash natijasi sifatida vujudga kelgan. Hozirgi paytda turkiy tillarda, oz miqdorda bo'lsa-da, -in//-in affiksining dastlabki ma'nosini saqlagan fe'llar topiladi: tat. s \ddot{e} yl \ddot{a} n (bir necha marta gapirmoq, so'zlamoq)<s \ddot{e} yla (gapirmoq), qaoran (qarab-qarab qo'yimoq)<qaora (qaramoq), saoylan(bir necha bor saylamoq)<saoyla (saylamoq), ozarb. g \ddot{a} zin (birmuncha vaqt yurmoq, aylanib yurmoq)<g \ddot{a} z (kezmoq) kabi. Takroriy harakat ma'nosi asosida subyekt foydasiga sodir bo'ladigan, uning shaxsiy qiziqishini qanoatlantiradigan harakatning o'rta nisbat ma'nosi nisbatan tez taraqqiy qilishi mumkin. Turkiy tillarda takroriy, davomiylik ma'nosini ifodalaydigan -in//-in affiksi ma'nosi faqat ana shu yo'l bilan taraqqiy qilishi mumkin: yoq. masta kerdin (o'zingga o'tin tayyorla), u:ta bahin (o'zingga suv keltir), diete bulun (o'zingga kvartira izla, top) kabi. Subyekt uchun sodir etiladigan harakat bevosita subyektga yo'naltirilgan harakat bilan birlashishi mumkin: tat. yu-in-am (yuvinaman). Shunday qilib, o'rtalik nisbat ma'nosi turkiy tillarda o'zlik nisbatini ifodalashga ko'chgan, deyish mumkin.

3. BIRGALIK NISBATI Ushbu nisbat ham eski va hozirgi turkiy tillarda uchraydi. Mazkur nisbat turkiy bobotil davridayoq shakllangan edi. Birgalik nisbatining ko'rsatkichi -ish//-ish affiksi hisoblanadi: tur. sevish (sevishish), tat. sug'ush (urishish), no'g'. barush (birgalikda bormoq), turkm. olish (olishish), chuv. vrush (urishish), qoz. jazush (yozishish) kabi. -sh(-ish) qo'shimchasini qadimgi ma'nolaridan biri doimiy harakat ma'nosi bo'lgan. Uning ayrim izlari hozir ham saqlangan: qoz. malush (suvga bir necha marta cho'kmoq)<mal (cho'ktirmoq), tat. aoldash (aldash)<aolda (aldamoq) kabi. Turkiyshunoslar fikricha, dastlab, -sh affiksi nisbat qo'shimchasi bo'lgan. U ko'plik ma'nosini bildirgan. Uning funksiyalaridan biri atash (ota bolalari bilan) anash (ona va bolalar) tipidagi ko'plikni ifodalash bo'lgan. Ana shu ma'no asosida keyinchalik fe'l affiksi -sh bilan ifodalanadigan birgalikdagi harakat ma'nosi vujudga kelgan bo'lishi mumkin ma'daniy kontekstdagi o'rnini yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

4. ORTTIRMA NISBAT Turkiy tillarda orttirma nisbat ko'rsatkichi sifatida quyidagi affikslar ishtirok etadi: -ar//-ar: tat. sh \ddot{e} g'ar (chiqar)<sh \ddot{e} q (chiqmoq), boshq. sh \ddot{e} g'ar, qoz. sh \ddot{e} g'ar (chiqar)<sh \ddot{e} q (chiqmoq), qum. qaytar (qaytar)<qayt (qaytmoq),

chuv. üger (tushirmoq)<ük (tushmoq);-ir//ir: o'rx.en. kälür (kelar)<käl (kelmoq), uyg'.

achu(r) (ochar)<ach (ochmoq), qum. ichir (ichar)<ich (ichmoq), tur. batir (botir)<bat (botirmoq), shor. qachir (qochir)<qach (qochmoq), no'g'. ushir (uchir)<uch (uchirmoq), tat. pishir (pishir)<pish (pishirmoq), yoq. ölor (o'ldir)<öl (o'lmoq);-tir//tir: qum. yazdir (yozdir)<yaz (yozmoq), turkm. üz'dir (suzdir)<üz (suzmoq), tur. yedir (yedir)<ye (yemoq), tuv. kestir<kes (kesmoq), olt. kiydir (kiydir)<kiy (kiymoq), qirg'.

öltür (o'ldir)<öl (o'lmoq), o'zb. o'stir<o's, shor. at-tir (ottir)<at (otmoq), tat. keldir (kuldur)<käl (kulmoq), yoq. kördür (ko'rsat)< kör (ko'rmoq), chuv. s'irdar (yozdir)<s'ir (yozmoq), uyg'. toldu(r) - (to'ldir)< tol (to'lmoq), boshq. yaoz'z'ır (yozdir)<yaoz' (yozmoq), q.tur. achtur (ochtir)< ach (ochmoq).

Xulosa:Nisbat kategoriyasi turkiy tillarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U qadimgi turkiy tillardan boshlab, zamonaviy davrgacha o'zgarib, rivojlanib kelmoqda. Ushbu kategoriya ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda, shuningdek, tilning boyligini va o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlar nisbat kategoriyasining murakkabliklari va uning ijtimoiy-madaniy kontekstini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1 Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. –B 16.

2.Educational Research in Universal Sciences
ISSN: 2181-3515 VOLUME 1 | ISSUE 5| 3.2022https://t.me/Erus_uzMultidisciplinary
Scientific Journal October, 20222682.

4.N. Abdurahmonov. Qadimgi turkiy yil. Qo'llanma. –T.: O'qituchi,1989. –B 81-82.

3. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. Darslik. –T.: 5.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. –B 139.

4. Sodiqova M. Fe'l stilistikasi. –T.: Fan, 1075. –B 36-47.

6 Mo'minova N. Turk tilida fe'l nisbatlari (fiil çatısı). Kurs ishi. –T. 2013.

7. Abdurasulov Yo. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. –T.: Fan, 2009. –260 b.7.